


«TASDIQLANDI»
«Davr bank» XATB
Boshqaruvining
2026 yil «28» 02 dagi
№ 11/2 -sonli bayonnomasi bilan

Boshqaruv raisi
A.A. Samadov



«Davr bank» XATB nizoni sudgacha hal etish
tartibi

Mazkur hujjat «Davr bank» XATBning mulki va tijorat siri hisoblanadi. Undan foydalanish tartibi va uchinchi shaxslarga taqdim etilishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki qoidalari bilan tartibga solindi.

«Kiritildi»

Yuridik xizmat boshqarmasi
boshlig'i



S. Dekanov

«Kelishildi»

Boshqaruv raisining
birinchi o'rinbosari


S. Nazarov

Boshqaruv raisining
o'rinbosari


R. Tojiyev


Boshqaruv raisining
o'rinbosari


J. Usmonov

Risk-menedjment departamenti
direktori


N. Xalilov

Chakana bank xizmatlari ko'rsatish
departamenti direktori



A. Kurbanov

«Huquqiy ekspertiza o'tkazildi»

Metodologiya va huquqiy ekspertiza
bo'limi boshlig'i


J. Ergashev

Ro'yxat raqami va sanasi: № 11/2, «28» 02 2026 yil



«Davr bank» Xususiy aksiyadorlik tijorat bankining nizoni sudgacha hal etish tartibi

I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur tartib «Davr bank» Xususiy aksiyadorlik tijorat bankining (keyingi o'rinlarda - Bank deb ataladi) ichki qoidasi hisoblanib, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Bank siri to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi PF-4850-sonli "Sud huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari tug'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi Nizomi (ro'yxat raqami: AV№3030, 02.07.2018 y.), O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining meyoriy hujjatlariga hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Mazkur "Davr bank" Xususiy aksiyadorlik tijorat bankining nizoni sudgacha hal etish tartibi" (keyingi o'rinlarda - Tartib deb ataladi) Bank va uning mijozlari (jismoniy va yuridik shaxslar) o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni (kelishmovchiliklarni) sud organlariga murojaat qilmasdan, ixtiyoriy, samarali va tezkor tarzda hal etish usullarini va tartibini belgilaydi.

1.3. Tartib quyidagi turdagi nizolarga nisbatan qo'llaniladi:

- shartnomaviy munosabatlardan (kredit shartnomalari, omonat shartnomalari, bank kartasi va hisobvaraqlarni yuritish shartnomalari, bank kafolatlari, akkreditivlar, inkasso va boshqa bank xizmatlari shartnomalari) kelib chiqadigan nizolar;

- bank xizmatlari ko'rsatish sifati, to'lovlarni amalga oshirish, foizlar hisoblash, komissiyalar undirish, penya va jarimalar qo'llash bilan bog'liq nizolar;

- mijozlarning bank siri, shaxsga doir ma'lumotlarga qayta ishlov berish, bank xizmatlaridan foydalanishdagi texnik muammolar va boshqa iste'molchilik huquqlari bilan bog'liq nizolar;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sudgacha hal etish tartibi talab qilinadigan yoki ixtiyoriy ravishda sudgacha hal etilishi mumkin bo'lgan boshqa nizolar.

II. Asosiy maqsad va vazifalar

2.1. Yuzaga kelgan nizolarni tezkor aniqlash, o'rganish va sudgacha hal qilish usullari (muzokaralar, mediatsiya, talabnoma yuborish) orqali bartaraf etish.

2.2. Talabnoma ishlarini yuritishning yagona tartibini ta'minlash, talabnomalarning huquqiy asoslilik va o'z vaqtida yuborilishini nazorat qilish.

2.3. Bankka nisbatan bildirilgan talabnomalarni tezkor va obyektiv ko'rib chiqish, asosli talablarni qanoatlantirish yoki rad etish.

2.4. Nizolarning sabablarini tahlil qilish, takrorlanishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va Bank rahbariyatiga takliflar kiritish.

2.5. Bank xodimlarini ushbu Tartib bilan tanishtirish, doimiy ravishda o'qitish va huquqiy maslahatlar bilan ta'minlash.

2.6. Nizolarni sudgacha hal qilish jarayonining barcha bosqichlarini hujjatlashtirish, ma'lumotlarni umumlashtirish va statistika yuritish orqali Bank faoliyatining samaradorligini oshirish.

III. Nizoni sudgacha hal etish imkoniyati va usullari

3.1. Nizoni sudgacha hal etish usullari:

- a) muzokaralar;
- b) mediatsiya;
- c) talabnoma yuborish.

3.2. Muzokara usuli - shartnomalarda nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati ko'rsatiladi, agar kelishuvga erishilmasa - nizolar sud tartibida hal qilinadi. Taraflar (Bank va mijoz) o'rtasidagi bevosita suhbat, telefon qo'ng'irog'i, masofadan turib videaloqa yoki yozma xabarnomalar almashinuvi orqali amalga oshiriladi.

3.3. Mediatsiya usuli - nizoni mustaqil va xolis shaxs (mediator) ishtirokida hal qilish usulidir.

3.4. Talabnoma yuborish - taraflarning kelishmovchilikni hal qilish bo'yicha o'z qarashlari va takliflari bayon qilingan xatlar (talabnoma va talabnomaga javob) almashinishi tushuniladi.

3.5. Nizoni sudgacha hal etish usulini tanlash (muzokaralar, mediatsiya yoki talabnoma yuborish) taraflarning o'zaro ixtiyoriy tanlovidir, agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa.

IV. Nizoni sudgacha hal etish tartibi

4.1. "Davr bank" XATBda kredit shartnomasi bo'yicha nizoli vaziyat vujudga kelgan taqdirda nizoni sudgacha hal qilish yozma ravishda ogohlantirish xati yoki talabnoma yuborish orqali amalga oshiriladi.

4.2. Ogohlantirish xati yoki talabnoma pochta aloqasi orqali maxsus buyurtma xat orqali yuboriladi yoki shaxsan mijozga (vakiliga) topshiriladi.

4.3. To'lovlar kechiktirilganda qarzdorga, garovga qo'yuvchiga va kafilga ogohlantirish xati yoki talabnoma yuboriladi.

4.4. Ogohlantirish xati yoki talabnoma yuborilganidan keyin mijoz tomonidan to'lov amalga oshirilmagan taqdirda, kredit to'lanmayotganligi holati o'rganiladi va kredit qarzdorlikni to'lash yuzasidan mijozga muddat berish yoki kredit qarzdorlikni undirish yuzasidan sudga da'vo arizasi kiritish masalasi hal qilinadi. Muzokara o'tkazish jarayonida, nizoni hal etish imkoni bo'lmagan

taqdirda qonunchilikda belgilangan tartibda da'vo ishi qo'zg'atish yo'li bilan undirish yuzasidan sudga da'vo arizasi kiritiladi.

V. Iste'molchining huquqlarini himoya qilish usullari

5.1. Bank xizmatlaridan foydalanish bilan bog'liq har qanday da'volarni, shu jumladan Bank xizmatlaridan foydalanish bo'yicha tegishli shartnomalarni tuzish, o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish, ijro etish, buzish, bekor qilish bilan bog'liq masalalar bilan Mijoz Bankka quyidagilar orqali murojaat qilishi mumkin:

- Bankning bosh ofisi va filial/Bank xizmatlari markazi ofislari;
- Bank ishonch telefon raqami orqali;
- Bank aloqa markazining telefon raqami orqali;
- Bank Boshqaruvi raisining onlayn Virtual qabulxonasi orqali;
- «Davr mobile2.0.» mobil ilovasi orqali;
- Bankning расмий www.davrbank.uz veb-sayti orqali;
- Bankning info@davrbank.uz elektron pochta manzili orqali;

5.2. Mijoz, murojaatga olingan Bankning javobidan qoniqmagan yoki huquqlari buzilgan deb hisoblagan taqdirda, u buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlari himoya qilinishini so'rab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish haqlidir.

VI. Yakuniy qoidalar

6.1. Mazkur Tartib tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.